XORAZM VILOYATI SHAROITIDA QALQONSIMON BEZ TUGUNLI HOSILALARI TASHXISOTIDA ACR TI-RADS STRATIFIKATSIYA TIZIMINING SAMARADORLIGI

Annamuratova M.S[1], Ismailova M.X.[2], Avezov.A.U.[1], Aytimova G.Y.[1]

[1]Urganch davlat tibbiyit instituti

[2]Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Bugungi kunda yod tanqisligi endemik hududi hisoblangan Xorazm viloyatida qalqonsimon bez kasalliklari, ayniqsa tugunli va o’choqli hosilalar strukturasi yuqori ko‘rsatkichni tashkil etadi. Ultratovush tekshiruvida tugunlarning malignizatsiya (xavflilik) darajasini baholashda klinik xatoliklarni minimal darajaga tushirish, UTT xulosalarini xalqaro standartlar asosida umumiy qoida (unifikatsiya) qilish hamda asossiz o‘tkaziladigan ingichka ignali biopsiyasi (TAB) amaliyotlarini optimallashtirish zamonaviy raqamli TI-RADS tizimini amaliyotga keng joriy etishni taqozo etmoqda.

Qalqonsimon bez o’choqli o‘zgarishlari bo‘lgan bemorlarda exografik belgilar asosida shakllantirilgan ACR TI-RADS tasniflash tizimining klinik-tashxisoti va differensial diagnostik samaradorligini baholash tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida Xorazm viloyati sharoitida qalqonsimon bezdagi o‘choqli hosilalari sababli retrospektiv va prospektiv tekshiruvdan o‘tgan 14 yoshdan 71 yoshgacha bo‘lgan 140 nafar bemorning klinik-demografik va instrumental-laborator ma’lumotlari tahlil qilindi. Tadqiqot guruhi 123 nafar (87,9%) ayollar va 17 nafar (12,1%) erkaklardan iborat bo‘lib, bemorlarning o‘rtacha yoshi 45,0±15,7 yoshni tashkil etdi

Barcha bemorlarda qalqonsimon bez ultratovush tekshiruvi 7,5–12 MGts.li chiziqli datchiklar bilan jihozlangan Chison CBit 10 apparatda amalga oshirildi. Exografik parametrlar biz tomondan taqdim etilayotgan avtomatlashtirilgan dasturiy algoritm yordamida baholandi va ACR TI-RADS stratifikatsiya tizimi bo‘yicha toifalarga ajratildi. Stratifikatsiya natijalari va ingichka ignali aspiratsion biopsiya (TAPB) ko‘rsatmalari Bethesda sitologik tasnifi hamda operatsiyadan keyingi yakuniy gistologik tahlil xulosalari bilan qiyosiy jihatdan statistik tahlil qilindi.

Avtomatlashtirilgan dasturiy tizim orqali o‘tkazilgan exografik stratifikatsiyada ACR TI-RADS, Bethesda sitologik guruhlari va yakuniy gistologik xulosalar o‘rtasida to‘liq diagnostik moslik qayd etildi.

Tizim tomonidan TI-RADS 4 va 5 (yuqori xavfli) toifalariga kiritilgan jami 66 ta (47,1%) bemorning barchasida (100%) operatsiyadan keyingi yakuniy gistologik tekshiruvda QSB karsinomasi (rak) tasdiqlandi. Ushbu xavfli guruhning 35 tasida (53,0%) sitologik tekshiruvda to‘g‘ridan-to‘g‘ri Bethesda V-VI (saratonga shubha va xavfli o‘sma) guruhlari aniqlangan bo‘lsa, qolgan 31 ta (47,0%) holatda sitologiya dastlab Bethesda IV (follikulyar o‘sma) guruhini ko‘rsatgan bo‘lishiga qaramay, yakuniy gistologiyada rak ekanligi verifikatsiyalandi. Bu muallif dasturining yuqori ijobiy prognostik qiymatga (PPV – 100%) ega ekanligidan dalolat beradi.

Aksincha, biz taklif qilayotgan algoritm bo‘yicha TI-RADS 3 (kam xavfli guruh) toifasiga kiritilgan 16 (11,4%) nafar bemorda Bethesda III (kuchsiz rivojlangan atipiya) guruhi aniqlandi va yakuniy tekshiruvlarda o‘smaning xavfsiz ekanligi tasdiqlandi. TI-RADS 2 (xavfsiz) toifasidagi qolgan 58(41,4%) nafar bemorda esa tizim tavsiyalariga asosan asossiz invaziv biopsiya (TAPB) muolajasi o‘tkazilmadi va ular Bethesda II guruhi sifatida dinamik ultratovush kuzatuviga qoldirildi.

ACR TI-RADS va Bethesda (2017) tizimlari bo‘yicha olingan natijalar tahlili**.** Tadqiqot davomida 140 nafar bemorda qalqonsimon bez uchoqli o‘zgarishlarining ultratovush belgilari ACR TI-RADS tasnifi bo‘yicha baholandi va ularning tsitologik hamda yakuniy gistologik xulosalar bilan o‘zaro muofiqligi o‘rganildi.

Xulosa. Xorazm viloyati endemik hudud hisoblanib, ushbu hudud sharoitida qalqonsimon bez tugunli hosilalarining uchrash dinamikasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu patologiya asosan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yetakchi o‘rin tutuvchi faol mehnat yoshidagi (40-59 yosh-45,0%) aholi qatlamida ko‘p kuzatiladi. Bu esa ushbu muammoning nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Gender omili bo‘yicha tahlil qilinganda, kasallik erkaklarga nisbatan ayollarda 7,2 barobar ko‘p uchrashi aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkich hududdagi gormonal va ekologik omillarning ayollar organizmiga ta’sirchanligi yuqori ekanligidan dalolat beradi va skrining dasturlarini asosan xotin-qizlar o‘rtasida faolroq olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

ACR TI-RADS tizimi va avtomatlashtirilgan dasturiy algoritm samaradorligi: Qalqonsimon bez xavfli o‘smalarini (rak) erta bosqichlarda aniqlashda zamonaviy ultratovush tasnifi — ACR TI-RADS stratifikatsiya tizimini avtomatlashtirilgan dasturiy algoritm vositasida qo‘llash inqilobiy

natijalarni ko‘rsatdi. Mazkur usul diagnostikaning aniqlik darajasini maksimal darajaga ko‘tardi va 100% ijobiy prognostik qiymatni namoyish etdi. Amaliyotda TI-RADS 4 va TI-RADS 5 toifasiga kiritilgan 66 ta holatning barchasida (100%) gistologik tekshiruvlar natijasida rak tashxisi tasdiqlandi. Bu raqamlar dasturiy algoritmning onkologik sergaklikni oshirish va saratonni o‘tkazib yubormaslikdagi ishonchliligi g‘oyat yuqori ekanligini isbotlaydi.

Ushbu innovatsion avtomatlashtirilgan exografik baholash usulining amaliy sog‘liqni saqlash tizimiga joriy etilishi bir nechta muhim yutuqlarni ta’minlaydi: Shifokor subyektivligini bartaraf etiladi: UTT shifokorining tajribasi va subyektiv fikriga bog‘liqligi kamayadi, tekshirish natijalari standartlashtiriladi; Asossiz invaziv muolajalar kamayadi: Xavfsiz va xavflilik darajasi past bo‘lgan tugunlari bo‘lgan bemorlarning 41,4%ida asossiz ingichka ignali aspiratsion biopsiya (TAPB) muolajalarini o‘tkazishga ehtiyoj qolmaydi; Iqtisodiy va psixologik samara: Biopsiyaga bo‘lgan ehtiyojning qariyb yarmiga kamayishi tibbiyot muassasalarining instrumental va laboratoriya xarajatlarini sezilarli darajada tejaydi. Shu bilan birga, bemorlarni ortiqcha invaziv, og‘riqli muolajadan va saraton qo‘rquvi bilan bog‘liq psixologik stressdan xalos etadi.